

**O'SMIR SHAXSI SHAKLLANISHIDA AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK  
MASALALARI**

**Mamasheva Mamlakatxon Abduraimovna**

*Andijon viloyati Jalaquduq tumani maktabgacha va mакtab ta'lmi bo'limiga qarashli  
24-umumiy o'rta ta'lismaktabi amaliyotchi psixologi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada axborot xurujlarining yosh avlodga, xususan o'smirga va jamiyatga salbiy ta'siri haqida so'z boradi. Mafkuraviy siyosiy ziddiyatlar, ommaviy madaniyat axborot xavf omilini keltirib chiquvchi deb qaraladi. O'smirlik davrida axborot-psixologik xavfsizlikni keltirib chiqaruvchi va bartaraf etuvchi omillar yoritiladi.*

**Kalit so'zlar:** O'smirlik davri, axborot, axborot-psixologik xavfsizlik, ijtimoiy ta'sir.

**Аннотация:** В данной статье говорится о негативном влиянии информационных атак на молодое поколение, особенно на подростков, и на общество. К факторам риска относят идеологические политические конфликты, информацию массовой культуры. Выделены факторы, обуславливающие и устраняющие информационно-психологическую безопасность в подростковом возрасте.

**Ключевые слова:** Подростковый возраст, информация, информационно-психологическая безопасность, социальное влияние.

**Abstract:** This article talks about the negative impact of information attacks on the young generation, especially on teenagers, and on society. Ideological political conflicts, mass culture information are considered to cause risk factor. Factors that cause and eliminate information and psychological security in adolescence are highlighted.

**Key words:** Adolescence, information, information-psychological security, social influence.

Axborot vositalarining o'smir dunyoqarashini shakllanishiga psixologik ta'sirini, jahon miqyosida voqealar shiddat bilan kechayotgan bir paytda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositasida kirib kelayotgan axborot oqimining o'smir yoshlar dunyoqarashi qadriyatlar tizimi, jismoniy va ruhiy salomatlik darajasiga jiddiy ta'sir ko'rsatayotganligi amaliyotda tasdiqlanmoqda. Aynan shu bois jahonning barcha mamlakatlarida o'smir yoshlarni turli axboriy taxidlardan himoya qilish masalasiga jiddiy e'tibor bilan yondashib kelinmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi buyuk imkoniyatlarni ochmoqda. Shu bilan birga ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda, ya'ni endi yovuz xavf-xatarlarning oldini olishda ota-onaga, jamiyatga munosabatda ma'naviy birdamlik, ijtimoiy-xavf xatarlarning psixologik xavf-hatarlarning holatini tahlil qila olishlari kerak bo'ladi".

Qadriyatlarini yemirish usullarining jirkanch ko‘rinishlaridan foydalanishlari mumkin. Bu albatta erkinlik yoki oshkoraliq, niqobi ostida sodir bo‘lishi ehtimoli yuqori hisoblanadi. Axborotni tanlash va u bilan ishslash salbiy yoki ijobiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo‘lgan jarayondir. Bir tomondan, individ mustaqil bo‘lishi lozim. Lekin, ikkinchi tomondan, u o‘zining ma’naviy negizlariga putur yetkaza oladigan yot ta‘sirdan himoyalanish dasturiga ega bo‘lishi darkor. Individ axborotning soxtaligini o‘z vaqtida payqamasligi mumkin, sababi bunday axborot odatda “yaltiroq qog‘ozga yaxshilab o‘ralgan” bo‘ladi. Oqibatda insonning axborotdan foydalanishdagi erkinligi aks samara beradiki, bu individning o‘zini ham bunday mustaqillikdan muhofaza qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Axboriy psixologik xavfning ko‘lami tobora kengayib bormoqdaki bunda shaxsga ta‘sir etishning turli qarashlar tizimidan foydalangan holda tadqiq qilinishga muhtojdir. Shuning uchun ham biz individni uning psixologik sifatlari va unga ko‘rsatiladigan axborot ta‘siri nuqtai nazaridan uchta asosiy mazmunda ko‘rib chiqsak, to‘g‘ri bo‘ladi:

birinchidan, u maqsadli yo‘naltirilgan axborot-psixologik ta‘sirga duchor qilinadigan bosh ob‘ekt hisoblanadi;

ikkinchidan, ayni bir paytda u ijtimoiy axborot bobida birdan-bir ishlab chiqaruvchidir;

uchinchidan, u axborot tajovuzlaridan davlat va jamiyat tomonidan himoya qilinishga muhtoj sub‘ektdir.

O‘smir-yoshlarda psixologik xavfsizlik tushunchasi odatda shaxsning xususiyatlaridan biri sifatida tushuniladi, uni himoya qilish darajasini tashqi dunyodan unga yo‘naltirilgan turli xil salbiy va halokatli omillardan xarakterlaydi. Shaxsiy daxlsizlikning psixologiyasi, birinchi navbatda, insonning farovon aqliy holatining zarur darajasiga bog‘liq bo‘lib, u o‘zining professional va ijtimoiy funksiyalarini o‘z hayoti uchun qo‘rmasdan va uning rivojlanishining salbiy oqibatlaridan qo‘rmasdan amalga oshirishi mumkinligi bilan bog‘liq. Psixologik ma’lumotlarga ko‘ra, individning axborot-psixologik himoyasi shu qadar murakkab jarayonki, bu borada oila, mahalla, ishlab chiqarish jamoasi, do‘stlar davrasi, jamiyat va davlatning kuch-g‘ayratini birlashtirish talab etiladi. Insonning psixologik xavfsizlikning eng muhim xususiyatlaridan biri mustahkamlik va moyillikdir, chunki u odamlarning turli xuruj va ekstremal holatlarga bog‘liqligini, shuningdek, vaziyatdan chiqish yo‘lini topish uchun qisqa vaqt ichida yordam beradigan to‘g‘ri qarorlarni qabul qilish qobiliyatiga ega.

Hozirgi kunda o‘smirlar hayotida axborot-psixologik immunitetini hosil qilishda quyidagi omillarni rivojlantirish zarurati mavjud:

- Yoshlarda vatanparvarlik, sadoqat, milliy o‘zlikka xos tushunchalarini boyitish, shakllantirib borish;
- Huquqiy, axloqiy me’yorlarga rioya etish va axborot xavf omili uning zarurati haqida izhil va muntazam ravishda bilimlar berib borish;
- Internetga tobelikning psixologik ta‘siri, sog‘lom turmush tarziga amal qilish;

- Internetga qaramlik, mobil telefonlarga tobelik, komyuter o‘yinlarining psixologik mohiyati;
- Mamlakatimiz va dunyoda ro‘y berayotgan voqealarga to‘g‘ri munosabatlarni shakllantirish;
- Axborot iste’moli madaniyatini shakllantirish haqida bilimlar berib borish;
- Sharq allomalarining buyuk meroslari axloqiy jihatlarining talaba-yoshlarga muhim zarurati;
- O‘quvchilarning mustaqil ijodiy ishlari orqali milliy an‘analarimizni rivojlanishiga hissa qo‘shuvchi, kasb-hunarga o‘rgatuvchi san’at turlarini egallashga moyillik tuyg‘ularini shakllantirib borish;

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, har qanday jamiyatning ma’naviy negizi-oila. Davlatning rivojlanishida oilaning mustahkam bo‘lishi bevosita oilaning ijtimoiy rolining muhim ekanligidan dalolatdir. Sog‘lom oilaviy munosabatlarning shakllanishi avvalo, jamiyatning ijtimoiy tartibini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Oilada shaxs voyaga yetadi, ongi, fikri, dunyoqarashi shakllanadi, hamda inson o‘zini faqat oilada baxtli tinch-totuv maskan sifatida qabul qiladi. Shunday ekan farzand tarbiyasi, turli xil yod g‘oyalarga aldanib qolmasligi insoniyat qulayligi uchun o‘ylab topilgan internet tarmog‘idagi buzg‘unchi g‘oyalarga tushib qolmasligi avvalo ota-onaning bolaga beradigan e’tibor va tarbiyasiga bog‘liqdir. Oilada ota-onsa mas’uliyatini yanada shakllantirish kelajak avlod uchun faqatgina ijobiy natija va har qanday salbiy, o‘smir hayotini barbod qiladigan g‘oyalarga nisbatan qarshilik kuchini paydo bo‘lishiga xizmat qiladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Sh. M. Mirziyoyev. Qonun ustuvorligi va inson mafaatlarini ta‘minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovoligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma‘ruza. 24-bet. Toshkent- —O‘zbekiston—2017
2. B. Umarov. Shaxs axborot-psixologik xavfsizligining psixologik imkoniyatlari. The light of islam, 4-son 2019 yil. 4-bet
3. Abdurazzoqov. N.K. —O‘smirlarda axborot-psixologik xavfsizlikni ta‘minlashning ijtimoiy-psixologik imkoniyatlari— Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences- 2021.15-iyun. 433.bet.
4. Samarov R. Axborot xavfsizligining nazariy va metodologik asoslari. T.: —Akademiya, 2010.